



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT
SHAHRINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-sentabr*





TOSHKENT SHAHRINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahrida 2024- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **3 095,5** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **54,7** ming kishiga yoki **101,8 %** ga ko'paydi.

Doimiy aholi soni

3 095,5 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+38,7 *ming kishi*

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1-oktabr holatiga

Erkaklar

49,1%



1519,3 *ming kishi*


Ayollar

50,9%



1576,2 *ming kishi*

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi, *ming kishi*




Toshkent shahri bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024- yil 1-oktabr holatiga (foizda)



2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, Toshkent shahar doimiy aholisi sonining **28,0** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,3** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **15,7** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	3 023,3	3 095,5	102,4
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	298,1	301,4	101,1
Bektemir	59,4	64,4	108,4
Yunusobod	374,2	383,4	102,5
Mirzo Ulug'bek	329,6	335,6	101,8
Mirobod	151,7	153,8	101,4
Shayxontohur	364,3	368,5	101,2
Olmazor	402,4	409,9	101,9
Sergeli	166,9	172,0	103,1
Yakkasaroy	132,3	138,1	104,4
Yashnobod	298,0	307,7	103,3
Yangihayot	171,8	184,3	107,3
Chilonzor	274,5	276,4	100,7

**Toshkent shahri hududi Toshkent viloyati hududi hisobidan kengayishi natijasida aholi sonida sezilarli o'zgarish bo'lgan.*

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

(Qiz bola):

24,8 ming kishi

(O'g'il bola):

26,6 ming kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **51,4** mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar **51,8 %** ni, qiz bolalar **48,2 %** ni tashkil etadi.

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi


2024 yil yanvar-sentabr



3 nafar va undan ortiq egizak
0,1%



2 nafar egizak
2,4%



1 nafar
97,5%

2024- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,5 %**
- 2 nafar – **2,4 %**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1 %**

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

yanvar-sentabr holatiga, kishi

	2023- yil	2024- yil	O‘ <i>sish sur’ati,</i> % da
Toshkent shahar	58220	51356	88,2
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	5897	3995	67,7
Bektemir	2430	2285	94,0
Yunusobod	7656	6403	83,6
Mirzo Ulug‘bek	5228	4321	82,7
Mirobod	2345	1847	78,8
Shayxontohur	5812	5335	91,8
Olmazor	8060	7671	95,2
Sergeli	1725	1899	110,1
Yakkasaroy	5617	4702	83,7
Yashnobod	3986	4213	105,7
Yangihayot	4439	3972	89,5
Chilonzor	5025	4713	93,8

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **51,4** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **22,4** promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan minus **3,6** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **26,0** promille bo‘lgan).




VAFOT ETGANLAR




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **12,7** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **5,5** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,4** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,1** promille).

Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr, kishi




Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)




2024- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **57,2 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **14,0 %** i – o‘simtalardan, **6,8 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,6 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,5 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **3,0 %** i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **9,9 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **16,6** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,1** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,1** promille bo‘lgan).




NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-sentabr oylarida **4,4** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar- sentabr oylarida **2,1** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr



2024- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning **42,6 %** i farzandsiz, **30,8 %** i bitta farzand bilan va **26,6 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahar bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **71 704** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **55 664** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi **16 040** kishini tashkil etadi. 2023- yilning mos davrida **20 062** kishi bo‘lgan.

Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr, (ming kishi)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **71,7** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **31,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **1,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- sentabr oylarida **32,9** promille bo'lgan).

Toshkent shahar bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar- sentabr, (ming kishi)

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida **55,7** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **24,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega ko'paygani kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **23,9** promille bo'lgan).



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi

Tel: 71 203-88-23, 48